



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS
**ZULFIYA QUROLBOY QIZI HIKOYACHILIGIDA BADIY
TASVIRIY VOSITALAR**

Nabijonova Rohilaxon Muxiddin qizi

Farg'ona viloyati Yozyovon tumani 27-maktabning

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi


Annotatsiya: Ushbu maqola, Zulfiya Qurolboy qizining hikoyalaridagi badiiy tasvir va portret yaratish usullariga e'tibor qaratadi. Maqolada ijodkorning asarlaridagi badiiy detallar, psixologik portretlar va qahramonlarning ruhiy holatlari tasvirlanadi. Yozuvchi, ayniqsa, Kamola obrazini yaratishda tashqi qiyofa o'rniga, uning ichki dunyosiga, kechinmalariga va ruhiy holatiga ko'proq e'tibor qaratadi. Maqolada portretning ikki tomonlama yondoshuvi, ya'ni tashqi va ichki tasvirlari, hamda badiiy tafsirlashning ahamiyati haqida batafsil so'z boradi. Shu bilan birga, Zulfiya Qurolboy qizining hikoyalarida o'ziga xos, kuchli hissiyotlar orqali o'quvchini qahramonlarning azob va kechinmalarini his qilishga undovchi uslublar ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: badiiy tasvir, portret, psixologik portret, Kamola, ichki dunyo, tashqi qiyofa, hikoya, badiiy detal, ruhiy holat, ijodkor, xarakter.

Ijod – so'zlarni izlash, tanlash, saralash, tejash va o'rinli ishlatish bilan bog'liq murakkab jarayon. Badiiy asar, yaxlit bir qo'shiq kabi bo'lib, uning sevilib aytilishi nafaqat semantika talablariga mos sinonimlarni tanlash orqali, balki tovushlarning ohangi, ritmning jarangdorligi va talaffuzning ta'sirchanligi orqali ham amalga oshiriladi. Ijodkor, birinchi navbatda, o'zini o'rab turgan dunyo orqali asar yaratadi. Asarda tasvirlangan olam alohida badiiy detallardan tashkil topgan bo'lib, badiiy detallar insonning ruhiy holatini tasvirlashda muhim rol o'ynaydi.

“Badiiy detal” deb, tabiat yoki portret elementlari, qahramonning biror sifatini, xususiyatini yoki ruhiy holatini ifodalovchi belgilarni tushunamiz. Detal, umumiy asarning bir qismi sifatida kichik obraz yoki “mikroobraz” (A.B.Esin) bo'ladi, lekin bir vaqtning o'zida kattaroq obrazning tarkibiy qismini ham tashkil qiladi. Yirik obraz esa o'ziga xos belgilarning yig'indisi sifatida detallarni birlashtiradi. Adabiyotshunoslikda badiiy tavsifning uchta asosiy shakli mavjud: portret, peyzaj va interyer. Biroq, bu uchala tavsif shaklida ham yagona maqsad – insonni tasvirlashdir.

Badiiy adabiyotda har bir ijodkor o'zining noyob uslubi va yo'nalishiga ega. Ba'zi asarlarni tushunish uchun kitobxon ko'p mehnat qilishi kerak bo'lsa, boshqalari esa oson va zavqli o'qiladi. Badiiy niyatni xarakterlar orqali kitobxonga yetkazish ijodkorning uslubi va mahoratiga bog'liq. Zulfiya Qurolboy qizining hikoyalarini o'qiganimizda, ijodkorning o'ziga xos tasvir uslubi, soddaligi va ravonligi, fikr va tuyg'ularining samimiyligi ko'rinadi. Adiba o'z hikoyalarida hayot ma'nosi, umr mazmuni va insonlarning o'y-kechinmalari haqida mulohaza yuritadi. Ijodkor inson obrazini





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

yaratishda, unga turli nuqtai nazardan qaraydi, uning tashqi va ichki dunyosini, odatlarini, fikrlarini, yashash sharoitini, atrofidagi odamlar va tabiat bilan aloqalarini o'rganadi. Adibaning ijodida, ayniqsa, ayol obrazlarini tasvirlashda maxsus yondashuvni ko'rish mumkin. Uning "Ayol", "Kelin", "Rashk", "Latofat xonim" kabi hikoyalarida ayollarning his-tuyg'ulari, kechinmalari va o'y-xayollari aks ettirilgan.

Adabiy qahramonlarni aniq tasavvur qilishda yordam beradigan vositalardan biri ularning portretidir. Portret – bu adabiy qahramonning tashqi ko'rinishi, kiyim-kechagi, xatti-harakati, o'zini tutishi va shu kabilarning badiiy tasviridir. Portret yaratishda ijodkor faqat yuz, ko'z, qosh, lab, burun kabi a'zolari tasvirlash bilan cheklanib qolmaydi, balki gavda, qo'l, bosh harakatlari, gapirish ohangi va sur'ati, kulish, yig'lash kabi insonning ruhiy holatlari bilan bog'liq xatti-harakatlarga ham alohida e'tibor beradi. Badiiy portretning ikki tomonlama yondoshuvi mavjud: bir tomondan, qahramonning tashqi qiyofasi, ikkinchi tomondan, uning ichki individual-psixologik xususiyatlari. Ushbu tasnif, albatta, shartli bo'lib, har ikki holatda ham yozuvchi qahramonning ruhiy holati va xarakteriga chuqurroq kirishga intiladi.

Zulfiya Qurolboy qizi o'quvchini qahramonlarning ichki dunyosini anglashga yordam berish uchun hikoyalarida psixologik portretlardan keng foydalanadi. "Psixologik portretida muallif qahramonning xarakterini ochish va uning o'y-kechinmalarini ifodalashga xizmat qiladigan muhim detallarga e'tibor beradi. Bunday detallardan portretning ruhiy va axloqiy mazmunini to'ldiradigan xususiyatlar shakllanadi, bu orqali qahramonning ruhiy holatlari aniq ko'rinadi".

Masalan, Kamolaning portreti quyidagicha beriladi: "Kamola har kuni ishga shiddat bilan kirib kelar, yuragi gurs-gurs urib, ko'zlari chaqnab ketar, tezroq uni ko'rishga intilardi. Ro'para kelganda esa o'zini yo'qotib, gapidan adashar, G'ulom Sayidning sovuq muomalasidan keyin esa hushi o'ziga kelar va sipo tortib qolardi. Alami kelganidan yig'lab yuboray derdi. 'E, Xudo, bu ahvol qachongacha davom etadi?' deb o'ylardi u, tepasida "Laboratoriya" deb yozilgan xonaga kirib, eshikni qarsillatib yoparkan. 'Domlam bo'lsa nima qipti? Olim bo'lsa o'ziga. Bola-chaqasi ham meni qiziqtirmaydi,' deb o'ylardi u o'jarlik bilan. 'Menga undan boshqa hech kim kerak emas!'" Qizning ko'zlaridan yosh to'kilib, ortiga qaytib, eshikni sekin ochib, yo'lakning narigi betida "Dots. G'ulom Sayid" deb yozilgan eshikka qararkan, xonasi ochilmaganini ko'rib, xayolida: "Qayoqqa ketib qoldiykin?" degan o'y tinimsiz charx urib borardi. Qiz bu ishlarning oqibatini o'ylamasdi, o'ylaydigan ahvolda emasdi.

Umuman olganda, yozuvchi hikoyada Kamolaning tashqi qiyofasini (yuzi, labi, qoshi, ko'zi, burni, yoshi kabi) emas, balki uning ichki ruhiy kechinmalarini, voqealarning unga ta'sirini tasvirlashga ko'proq e'tibor qaratgan.

Epik janrda, ayniqsa, roman shaklida qahramon portretini batafsil tasvirlash imkoniyati kengroq bo'ladi, lekin hikoyada bu imkoniyat cheklangan bo'lsa ham, qahramon xarakterini ochishda portret muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida o'z g'oyaviy maqsadlariga mos portret yaratishning turli





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

usullaridan samarali foydalangan va shu orqali takrorlanmas xarakterlar yaratgan. Mahorat bilan yaratilgan portretlar esa inson obrazini yorqinlashtirish va uning ruhiy holatini chuqurroq o'rganish vositasiga aylangan.

Xulosa. Ijodkorning “Ayol”, “Kelin”, “Ko'lanka”, “Qadimiy qo'shiq” kabi hikoyalari o'zining kuchli hissiyoti bilan kitobxonni o'ziga tortadi. Ayniqsa, “Tafakkur” hikoyasini o'qigan o'quvchi undagi voqealar rivojidan befarq qolmaydi. Hikoya iste'dod bilan yozilgan bo'lib, kitobxon bosh qahramonning kulfatlari, fojialari va azoblaridan qiynaladi, uni tushunib, birga mashaqqat chekish hissini his qiladi. Xullas, Zulfiya Qurolboy qizi o'z hikoyalarida obrazlarning ruhiyatini ma'lum bir vositalar yordamida yaratadi. Bu vositalar esa o'z navbatida obrazlarning ruhiyatiga chuqur kirib borishga zamin yaratgandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Зулфия Қуролбой қизи. Қадимий қўшиқ: ҳикоялар. – Т.: О'zbekiston, 2012. – Б. 255-274.
2. Йўлдошев Қ., Йўлдошева М. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: Kamalak, 2016. – 464 б.
3. Кант, Иммануил. Из лекций по этике / Этическая мысль. – М.: Политиздат, 1990. – 480 с.

